



MORFOLOGIK VOSITALAR YORDAMIDA MATNLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI OSHIRISH

Yaxshiboyeva Farangiz

SamDU Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabasi.

e-mail: firdavsyaxshiboyev633@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada morfologik vositalar yordamida maktab darsliklarida keltirilgan matnlar va ular bilan ishlash hamda matnlarni fonetik tahlil qilish, mantiqiy fikrlashni oshirish yuzasidan topshiriqlar va misollar berildi.

Kalit so'zlar: Ona tili mashg'uloti, matn, fonetika, tahlil qilish, morfologiya, lug'at, darslik.

Ma'lumki yangi avlod darsliklari ko'p yillik an'analarga o'zgartirish kiritib jahonda ta'limi rivojlangan davlatlar andozasiga mos ravishda va o'zbek ta'limi modelining yutuqlarini o'zida aks ettirishga yo'naltirilgan. Bundan asosiy maqsad o'quvchilarning savodxonligini oshirish, to'g'ri so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish va aynan maktab ona tili darsliklarida berilgan matnlarni tahlil va talqin qilish jarayonida morfologik, fonetik, sintaktik bilim va ko'nikmalarini yanada shakllantirish va bu orqali o'quvchilarning ongini rivojlantirish, o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanib o'z qobiliyati va talantini ishga solib hayotini yana yaxshilanishi va ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyat yaratib berishdan iboratdir. Ona tili mashg'ulotlarida matnni o'qish, sinf o'quvchilari bilan dars jarayonida tahlil qilish va matn mazmuniga xos g'oyani aniqlash, o'zi mustaqil holda xulosa chiqarib, uni bayon qilish, matnni tahrir qila olish, matnni yozma tarzda shakllantirish uchun uning tarkibiga leksik, morfologik, grammatik birliklarni tanlay olish, ulardagi hosil qilingan bilim va ko'nikma, malakalar rivojiga bog'liq. Shu bois o'quvchilarning birinchi galda og'zaki va yozma savodxonligini, bilimni o'stirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olim M.Yuldashevning ta'kidlashicha, "Ma'lumki, og'zaki nutq birlamchi, yozma nutq esa ikkilamchidir. Shuning uchun ham yozma matn uchun og'zaki nutqning genetik asosi bo'lishi aksiomadir.

Jumladan, bizga ma'lumki, to'g'ri nutq tuzishning asosi morfologik, grammatik qoidalardir. Ammo nutning ta'sirli va aniq bo'lishi uchun grammatik vositalarning uslublarga xoslanishi, ulardagi uslubiy o'ziga xoslik, uslubiy bo'yoq hamda ma'no nozikligini ham e'tiborga olish zarur.



Morfologik birliklarning matndagi vazifasi esa maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini qo'llash orqali matnda ekspressivlik- emotsionallik ifodasini berishdir. Shu o'rinda tahlil jarayonida matnda qo'llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachaliklar haqida so'z boradi (Qarang: M. Kurbonova, M. Yo'ldoshev "Matn tilshunosligi" Tosh. 2014. 74-bet). Matnda morfologik tahlil so'zlarni imloviy xatolarsiz yozish uchun ham ahamiyatlidir.

Ona tili darslarida o'quvchilarga grammatik qoidalarini va nazariy ma'lumotlarni chuqur o'rgatib, mavzuni mustahkamlash uchun berilgan mashq va topshiriqlarni bajarish bilan birga ularning og'zaki va yozma nutqlarida kirish so'z, ko'makchilar va bog'lovchilarni o'z o'rnida qo'llashga oid nazariy va amaliy bilimga ega bo'lishi o'zining fikrlarini bir-biriga mazmunan bog'lash va xulosalash, mantiqiy izchillik yanada rivojlanadi. Shu o'rinda fikrlarimizni yanada yorqinroq ifodalash maqsadida quyidagi maktab ona tili darsliklarida berilgan topshiriq va matnlarga e'tibor qaratsak:

8-sinf ona tili darsligi 9-mashq (7-bet).

1-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning so'rog'ini aniqlang va izohli lug'atini yarating.

2-topshiriq. Ushbu matnda fonetik hodisaga uchragan so'zlarni topib ularni morfologik tahlil qiling.

Sayridan-tovush tushgan, ot

Sababini-tovush ortgan, ot

Shunday- tovush ortgan, olmosh

Buni-tovush ortgan, olmosh

3-topshiriq. Matn tarkibida kelgan yordamchi so'zlarni toping va uslubiy xoslanishi haqida fikr yuriting.

4-topshiriq. Matnda emotsional-ekspressivlik, estetik maqsad ifodasini berishda qo'llangan so'zlar qaysilar?

Muhabbat nima ?

Muhabbatni oshiqalar umr mazmuni deb biladilar. Ayrimlar uchun u – azob, biroq totli azob. Vafo ko'rmaganlar: “Muhabbat yo‘q narsa ekan”, “Muhabbatga ishonmayman”, – deb yozg‘irib ham qo‘yishadi. Bundan ko‘rinadiki, muhabbatga turli taqdir sohiblari har xil ta‘rif berishar ekan. Biroq adabiyot sahifalarini varaqlar ekanmiz, bir narsaga amin bo‘lamiz: oshiq uchun muhabbat mangu bor, ba‘zan yor bevafo yoki berahm bo‘lishi mumkin, xolos. Muhabbatni “Sevib qoldim”,



“Ko‘nglimda muhabbat uyg‘ondi”, “Ishqim tushdi” kabi jumlar bilan izhor qiladilar. Biroq sevgi, muhabbat, ishq deganlari bir narsamikan? Ingliz tilida “Love”, nemischada “Liebe”, lotinchada “Amor”, ruschada “Любовь” deb nomlanadigan tuyg‘uga nisbatan o‘zbek tilida sevgi, muhabbat, ishq so‘zlari qo‘llanadi. Biroq bu so‘zlar ayrim jihatlari bilan o‘zaro farqlanar ekan. Adib va adabiyotshunos Pirimqul Qodirov mavzuga doir maqolasida sevgi bir qalbda bo‘lsa, muhabbat ikki qalb o‘rtasida bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, siz kimnidir sevsangiz-u, lekin u sizni sevmasa ham sevgi haqida gapirish mumkin, biroq muhabbat so‘zi ikki qalb bir-birini sevgan holatda ishlatiladi.

2. “Sevgi” so‘zi o‘zbekcha (turkiy) bo‘lsa, “muhabbat” arab tilidan o‘zlashgan. Manbalarda “muhabbat” so‘zi “hubb”, ya’ni xum so‘zidan olingani aytiladi. Xum to‘lsa, uning ichiga boshqa narsa solib bo‘lmaganidek, qalbda muhabbat bo‘lsa, boshqa kishiga joy qolmaydi. “Sharq yulduzi”da bosilgan maqolada shunday yoziladi: “Yana boshqa ba’zilar “muhabbat” so‘zining “habb” (don) so‘zidan kelib chiqqani to‘g‘risida fikr bildirishadi. Jumladan, “habb” so‘zi to‘g‘risida har bir mag‘izli narsaning doni bor, deydilar. Shundan kelib chiqib, yurakning o‘rtasini “habbat ul-qalb” (yurak doni) deydilar va do‘st (sevgili, suyuqli, mahbub, ma’shuq) o‘sha joydan o‘tsa, shuni “muhabbat” deb ataydilar”. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: kundalik hayotda ham biz bu ikki tushunchani farqlaymizmi? Shoir va yozuvchilarimiz-chi? Xalqona she’rlar ijodkori Muhammad Yusufga murojaat qilib ko‘ramiz:

Sevgi, sevgi der ekan,
Sevgi dilni yer ekan.
Qizga mehring berguncha,
Muzga bag‘ring ber ekan.
Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u,
Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku.

Bu satrlardan ko‘rinadiki, biz sevgi va muhabbat tushunchalarini deyarli farqlamaymiz. Lekin muhabbat negadir sevgidan ko‘ra kengroq va yukli tushunchadek tuyulaveradi. Sizda ham shunaqami?



3. Endi oshiq, ma'shuqa, ushshoq so'zlarining asosi bo'lmish ishq haqida gaplashsak. "Ishq" so'zi "ashaqa" – "chirmovuq o't"dan olingan. Chirmovuq daraxtga chirmashib unga ziyon yetkazadi, oxir-oqibat quritadi. Ishq bir dard bo'lib, u odamning fikri-yu yodini, o'y-u xayolini "chirmab" oladi, kuni kelib kasal qiladi. Bu ma'lumotlarni o'qiy turib bexos Majnunni eslagan bo'lsangiz, ajab emas. Binoyidek Qays ishq domiga tushib majnunga aylandi-qoldi. Laylini har ko'rganida hushidan ketib qolishlari, "Layli, Layli"dan boshqa narsa aytmasligi, sahroda hayvonlar bilan do'st tutinishi – bularning hammasi ishqning sevgi-muhabbatdan yuqori daraja ekanini anglatadi.

2. Ushbu matn tarkibidagi notanish so'zlar izohini toping.

Muhabbat- (a) sevgi 1) biror shaxsga yoki kishilar guruhiga, g'oyaga yoki amaliy faoliyatiga nisbatan intim va kuchli tuyg'u. Nafratning aksi. Shaxs ichki dunyosining eng erkin ifodasi sifatida yuzaga keladi. 2) Tasaffuvda Allohga yetishishning asosiy vositasi.

Oshiq- oshug- ozarbayjon, arman va b. xalqlarda shoir, xonanda va bastakor. Oshiqlar san'ati qadimgi turkiy o'zon va arman gusanlar an'analari negizida 16-17 – asrlarda rivoj topdi.

Vafo- saodat, vadani bajarish, 1) yorga, do'stga, yaqin kishilarga sadoqat; 2) sodiq turmoq, sadoqat ko'rsatmoq

Sevgi- qarama-qarshi jinsdagi odamlarning (er-xotin, yigit va qizning) bir-biriga nisbatan chuqur intim, chin qalbdan va fidokorona iliq munosabat tuyg'usi

Ishq- (a) sevgi, muhabbat, oshiqlik, xushtorlik

Qalb- (a) yurak, dil, o'rtalik, markaz, lashkarning o'rtasi

Ma'shuqa- ma'shuq ayol.

Hayot- hayot va o'lim. Yashash yoki o'lish, taqdir

Chirmovuq- devpechak, zarpechak, pechakgul singari chirmashib o'sadigan o'simliklarning umumiy nomi.

Yurak- odam va hayvonlarning qon aylanish sistemasidagi markaziy a'zo, u doimo bir xilda qisqarishi tufayli qonni qon aylanish sistemasi bo'ylab haydab beradi

Ziyon- a. zarar, yo'qotish, ziyon keltirmoq, ziyon ko'rmoq

Bexos- f-nogoh, to'satdan, kutilmaganda, bexosdan, qo'qqisdan

3. Ushbu matnda fonetik hodisaga o'chragan so'zlarni aniqlab ularni morfologik tahlil qiling.

Ko'nglimda- tovush tushgan, ot

Narsamikan- tovush tushgan, ot



Shunday-tovush ortgan,olmosh
 Deydilar-tovush ortgan,fe'l
 Ko'kragimga-tovush almashgan,ot
 Yuragimni-tovush almashgan,ot
 Shunaqami-tovush ortgan,olmosh
 Unga-tovush ortgan,olmosh
 Aytmasligi-tovush almashgan,fe'l
 Anglatadi-tovush almashgan,fe'l

4.Ushbu berilgan fikrlardan matnga mos keladiganini toping.

1.Bir – birini sevisish uchun o'zi bilan kurashmoq kerak.

(Fyodor Dostoyevskiy)

2.Chin muhabbatning birinchi belgisi yigitda uyatchanlik, qizda esa jasoratdir.

(Viktor Gyugo)

3.Sevgi bilangina uylanish yaxshi, chiroyli bo'lgani uchungina qizga uylanish bozorda keraksiz narsani chiroyli bo'lgani uchungina sotib olishga o'xshaydi.

(Anton Chexov)

4.Muhabbat haqida gapirmayman, chunki biz haligicha uning nimaligini bilmaymiz.

(Konstantin Paustovskiy)

5.Ishq boshqa , havas boshqa.

(Maqol)

5.Quyidagilardan matnga mos keladigan sarlavha toping.

1. “Ko'ngildagi muhabbat”

2. “Haqiqiy ishq nima?”

3. “Oshiqlik va ishq”

4. “Muhabbat- ikki qalb birligi”

6.Matnni ochib beruvchi kalit so'zlarni toping.


Muhabbat, ishq, oshiq, yurak, umr mazmuni, ko'ngil, qalb, sevgi, iztirob, tuyg'u, habb ul-qalb, ishonch, vafo, ma'shuqa, ushshoq...

7.Matn yuzasidan fikringizni xulosalang.

Muhabbat haqiqiy oshiqlar uchun chinakam umr mazmunidir.Ayrimlar uchun totli bo'lsa, ayrimlar uchun azoblidir.Bundan ko'rinadiki turli qalb egalari unga **turlicha ta'rif beradilar.Zamonlar o'tishi bilan har bir qalbda, har bir yurakda muhabbat yangidan kashf etilib, yangilanib boraveradi.**Muhabbat qalbning qimmatli javohiridir.Shu o'rinda A.Oripovning “ Har bir yangi qalb muhabbatni qaytadan

yangilaydi” kabi fikrini keltirishimiz mumkin. Sevgi va muhabbat turli qutblardagi o’zaro bir xil tuyg’udir. Bu borada adib va adabiyotshunos Pirmqul Qodirov shunday deydi: “...sevgi bir qalbdan bo’lsa, muhabbat ikki qalb o’rtasida bo’ladi. Siz kimnidir sevsangiz-u, u sizni sevmasa ham sevgi haqida gapirish mumkin”. Inson ruhiyatini butunlikda sevgi, ishq, muhabbat qamrab olar ekan u ilohiy va insonlarga bo’lgan ulug’ bir tuyg’uni aks ettiradi.

8. Quyida keltirilganlardan matnga mosini tanlab quyding.



1. Muhabbat bu- Rosulullohu sallollohu alayhi va sallam hijrat qilgan kechalarida u zotning o’rinlarida to’shakda uxlagan Ali roziyollohu anhudir. U Rosulullohu sallollohu alayhi va sallamni qavmlari o’ldirish uchun jamlanganini bilar va bu to’shakda u zotning o’rinlarida qatl qilinishiga aniq ishonar edi.

Muhabbat bu- Rosulullohu sallollohu alayhi va sallamga ruhini, obro’sini, molini fido qilgan Abu Bakrdir roziyollohu anhudir. Uni Quraysh kofirlari urib hushidan ketkazishganda hushiga kelib avval aytgan gap " Rosulullohga nima bo’ldi" bo’lgan edi.

9. MUHABBAT, sevgi — 1) biror shaxsga yoki kishilar guruhiga, g’oyaga yoki amaliy faoliyatga nisbatan in-tim va kuchli tuyg’u. Nafratning aksi. Shaxs ichki dunyosining eng erkin ifodasi sifatida yuzaga keladi. Muhabbat tuyg’usining



ulugʻvorligi va murakkabligi shundaki, unda biologik va maʼnaviy, shaxsiy va ijtimoiy, in-tim va umumiy holatlar bamisoli bir nuqtaga toʻplanadi.

Ijtimoiy fikrlar tarixida Muhabbatga turlicha maʼno berilgan. Yunonistonda Muhabbatni kishilar va [tabiat](#) ustidan hukmronlik qiluvchi afsonaviy [kuch](#) deb tushunganlar, natijada Muhabbat xudosi — [Erot \(Eros\)](#) haqida tasavvurlar vujudga kelgan. [Empedokl](#) M. olamni — insonlar va tabiat hodisalarini uyushtirib, birlashtirib turuvchi omil deb qaragan, [Platon](#) M. ni 2 turga — missiy Muhabbat va aqliy Muhabbatga ajratadi. Uning fikricha, hissiy Muhabbat tashqi goʻzallikni his qilishdan hosil boʻladi va Muhabbatning quyi bosqichini tashkil etadi. Aqliy Muhabbat esa goʻzallikni keng maʼ- noda — axloqiy-estetik, ilmiy tushunishdan paydo boʻladi. U akliy (maʼnaviy) Muhabbatni [ustun](#) qoʻyadi.

Sevgi, mehr, sadoqat darajasidagi Muhabbat odamlar va hayvonlarning genetik dasturida mavjud boʻlgan biologik [hodisa](#) sifatida oʻzidan [avlod](#) qoldirish, uni hayotga tayyorlashga qaratilgan kuchli his-tuygʻuning namoyon boʻlishidir. Bu, hayvonda ham, odamda ham oʻz zoʻrriyotini saqlab qolishga qaratilgan extirosli ehtiyojlarni jinsiy munosabatlar shaklida yuzaga chiqaradi. Muhabbat faqat 2 jinsning birlashishiga boʻlgan kuchli ehtirosdan iborat boʻlibgina qolmay, ayni chogʻda u odamning ota-onasi, qarindosh-urugʻlari, yaqin kishilari, doʻstlari, qoʻni-qoʻshnilari, oʻquv va [mehnat](#) jamoalari, oʻz xalqi va Vatani hamda umuman bashariyat bilan ruhan yaqinlashishning kuchli vositasi hamdir. Muhabbat tufayli [indivud](#) goʻzal feʼl-avtorni, xulqni oʻzida gavdalandirib, muayyan [jamo](#)a va [jamiyat](#) oldida yuksak qadr topadi, boshqalarda oʻziga nisbatan samimiy mehr-oqibatni uygʻota oladi. Shuning uchun ham bilish nazariyasida Muhabbat olam va [odam](#) munosabatlarini anglash jarayenining boshlanishi va shart-sharoiti ham hisoblanadi. Odam olamni, oʻzini kur-shagan tabiiy va ijtimoiy muhitni ularga boʻlgan Muhabbati darajasida anglaydi. Muhabbat odamlar va narsalar mohiyatini bilib olish uchun aqlga yoʻl ochadi, qorongʻu dunyoni yorugʻ etadi, ezgulikni yovuzlikdan, rostni yolgʻondan farqlash mezoni sifatida ham namoyon boʻladi. Muhabbat odamlarni, turli jamoalarni, xalqlarni, millatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Muhabbat [bor](#) joyda murakkab muammolar ham osonlikcha [hal](#) boʻladi, hatto urushlarga, janjallarga oʻrin qolmaydi.

10. Matndga oid test topshiriqlarini bajaring.

1. Adib Pirimqul Qodirov muhabbat ikki qalb oʻrtasida boʻlishini takidlaydi.

A) Ha

B) Yoʻq



2.”Sevgi “ arab tilidan olingan so’zdir.

A) Ha

B) Yo’q

3.Oshiq , ma’shuqa so’zlarining asosi ishqdir.

A) Ha

B) Yo’q

4.Ishq chirmoviq o’tga o’xshab insonni chirmab oladi va kun kelib uni yuksaklarga kutaradi.

A) Ha

B) Yo’q

5.Shoir Muhammad Yusuf muhabbatni go’zal bir iztirobga o’xshatadi.

A) Ha

B) Yo’q.

Xulosa qilib aytganda, matn turlarini to’g’ri tahlil qilib, mustaqil fikrlab, matnni qayta yozish ko’nikmasiga ega bo’lish va topshiriqlarga tog’ri, o’rinli javob topa bilish o’quvchining yozma savodxonligining o’sishini boyituvchi va tafakkurini kengaytiruvchi zaruriy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois ona tili darslarida o’quvchilarga nafaqat ilmiy, badiiy, rasmiy va poetik matnlar ustida ishlash bilan bir qatorda mazkur matnlarni adabiy til me’yorlariga muvofiq tuzish va yozishni o’rgatib, xato va kamchiliklarni bartaraf qilish bo’yicha ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Kurbonova, M.Yo’ldoshev "Matn tilshunosligi" Toshkent 2014.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati
D.A.Shorahmedov, M.N. Aminov, A.Niyozov (1,2,3,4,5 tom)
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik.Cho'lpon nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi-2019.(Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne'matov)
- 4.Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf uchun darslik.Toshkent-2022.(Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim v.b.)
5. A'zam Xoliqov “Pedagogik mahorat” “Tafakkur – Bo’stoni” Toshkent 2011
6. <https://xs.uz>